



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti




No9(2)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 62 sahifa,  
11-sentyabr, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                              |    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi uzviylik va uzluksizlik masalalari:<br>muammoning nazariy va amaliy jihatlar.....                                        | 10 |
| <i>A. A. Alimov, M. A. Rustamboyeva</i>                                                                                                                      |    |
| Bolalarda didaktik o'yinlar asosida aqliy faolligini rivojlantirish .....                                                                                    | 16 |
| <i>Ismoilova Sabina Erkin qizi</i>                                                                                                                           |    |
| Ingliz tilida og'zaki nutq kompetensiyasining mazmuni, tuzilmasi va tarkibiy komponentlari .....                                                             | 22 |
| <i>Nazarov Zafarjon Abdullajon o'g'li</i>                                                                                                                    |    |
| Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirishning<br>pedagogik tizimini takomillashtirish .....          | 26 |
| <i>Sabirova Gulmira Sadik qizi</i>                                                                                                                           |    |
| Реализация компетентностного и нейродидактического подходов в<br>профессиональной подготовке специалистов профессионального образования .....                | 32 |
| <i>Азизова Асалхон Руслановна</i>                                                                                                                            |    |
| Развитие воображения учащихся с нарушением зрения в процессе изобразительной деятельности...                                                                 | 36 |
| <i>Бектурдиева Шохид Сатиболдиевна</i>                                                                                                                       |    |
| Musiq ta'limida raqamli texnologiyalar asosida o'quvchilarning musiqiy-kognitiv<br>salohiyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish .....          | 44 |
| <i>Rustamjonova Dilhas Ravshanbek qizi</i>                                                                                                                   |    |
| Tarbiyaviy jarayonlarda texnologik yondashuvni tadbiq etishning pedagogik imkoniyatlari .....                                                                | 50 |
| <i>Raxmatova Mexrinov Majitovna</i>                                                                                                                          |    |
| Bo'lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta'lim sharoitida ko'rishida muammolari bo'lgan bolalar bilan<br>ishlashga tayyorlashning ilmiy-metodik asoslari..... | 54 |
| <i>Xusnuddinova Zulayxo Xamidullayevna</i>                                                                                                                   |    |



# MUSIQA TA'LIMIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QUVCHILARNING MUSIQIY- KOGNITIV SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Rustamjonova Dilhavas Ravshanbek qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti  
Magistratura bo'limi, 70110601 - musiqa ta'lim va san'at yo'nalish bitiruvchisi,  
pedagog-tadqiqotchi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa ta'limini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish orqali o'quvchilarning musiqiy-kognitiv salohiyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalasi tadqiq etilgan. Musiqiy-kognitiv salohiyat o'quvchining musiqiy axborotni idrok etish, eslab qolish, taqqoslash, tahlil qilish, musiqiy hodi-salar o'rtasidagi bog'liqlikni anglash, ritmik va melodik tuzilmalarning xususiyatlarini aniqlash hamda mustaqil musiqiy xulosa chiqarish qobiliyatlari majmui sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotda multimedia resurslari, interaktiv musiqiy dasturlar, raqamli audio va video materiallar, virtual musiqa muhiti, elektron nota resurslari hamda sun'iy intellekt elementlaridan pedagogik maqsadga muvofiq foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, musiqa tinglash, musiqiy tahlil, ritmik mashqlar, interaktiv topshiriqlar va raqamli baholashni yagona metodik tizimga birlashtiruvchi takomillashtirilgan metodika taklif etiladi. Raqamli vositalardan foydalanishning asosiy maqsadi texnologiyaning o'zidan foydalanish emas, balki o'quv-chining faol musiqiy tafakkuri, mustaqil fikrlashi va tahliliy faoliyatini kuchaytirish ekanligi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** musiqa ta'limi, raqamli texnologiyalar, musiqiy-kognitiv salohiyat, musiqiy idrok, musiqiy tafakkur, multi-media, interaktiv ta'lim, raqamli pedagogika.

**Abstract:** This article examines the improvement of methods for developing students' musical and cognitive potential through the organization of music education in general secondary schools based on digital technologies. Musical and cognitive potential is interpreted as a set of abilities that enables students to perceive, remember, compare, and analyze musical information, understand relationships between musical phenomena, identify the characteristics of rhythmic and melodic structures, and draw independent musical conclusions. The study analyzes the pedagogical potential of multi-media resources, interactive music programs, digital audio and video materials, virtual musical environments, electronic music notation resources, and elements of artificial intelligence. It also proposes an improved methodology that integrates music listening, musical analysis, rhythmic exercises, interactive tasks, and digital assessment into a unified methodological system. The study substantiates that the primary purpose of using digital tools is not the technology itself, but rather the enhancement of students' active musical thinking, independent reasoning, and analytical activity.

**Key words:** music education, digital technologies, musical and cognitive potential, musical perception, musical thinking, multimedia, interactive learning, digital pedagogy.

**Аннотация:** В статье исследуется вопрос совершенствования методики развития музыкально-когнитивного потенциала учащихся посредством организации музыкального образования в общеобразовательных школах на основе цифровых технологий. Музыкально-когнитивный потенциал рассматривается как совокупность способностей учащегося воспринимать, запоминать, сравнивать и анализировать музыкальную информацию, осознавать взаимосвязи между музыкальными явлениями, определять особенности ритмических и мелодических структур, а также самостоятельно формулировать музыкальные выводы. В исследовании проанализированы возможности педагогически целесообразного использования мультимедийных ресурсов, интерактивных музыкальных программ, цифровых аудио- и видеоматериалов, виртуальной музыкальной среды, электронных нотных ресурсов и элементов искусственного интеллекта. Кроме того, предложена усовершенствованная методика, объединяющая слушание музыки, музыкальный анализ, ритмические упражнения, интерактивные задания и цифровое оценивание в единую методическую систему. Обосновано, что основной целью использования цифровых средств является не сама технология, а усиление активного музыкального мышления, самостоятельного мышления и аналитической деятельности учащихся.

**Ключевые слова:** музыкальное образование, цифровые технологии, музыкально-когнитивный потенциал, музыкальное восприятие, музыкальное мышление, мультимедиа, интерактивное обучение, цифровая педагогика.



## KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, o'quvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini yuksaltirish hamda ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son<sup>1</sup> Farmoni bilan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi mamlakatda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va ularning ijtimoiy sohalarga, jumladan, ta'lim tizimiga keng tatbiq etishning strategik asoslarini belgilab berdi.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ta'limning barcha yo'nalishlari qatori musiqa ta'limini ham zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, raqamli audio va video resurslar, multimedia vositalari, interaktiv ta'lim platformalari, elektron nota dasturlari va boshqa raqamli vositalardan pedagogik maqsadlarda foydalanish o'quvchilarning musiqiy idroki, xotirasi, tafakkuri, tahliliy hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Shu nuqtayi nazardan, musiqa ta'limida raqamli texnologiyalardan foydalanishning metodik asoslarini takomillashtirish, o'quvchilarning musiqiy-kognitiv salohiyatini aniqlash va rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb ilmiy-pedagogik masalalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolada musiqa ta'limida raqamli texnologiyalar asosida o'quvchilarning musiqiy-kognitiv salohiyatini rivojlantirishning nazariy asoslari, takomillashtirish yo'llari tahlil qilinadi.

### Mavzuning dolzarbligi:

Musiqa darslarida o'quvchining faqat qo'shiq kuylashi yoki musiqiy asarni tinglashi yetarli emas. Zamonaviy musiqa ta'limi o'quvchidan musiqiy obrazni anglash, asarning janr va xarakterini aniqlash, ritmik va melodik xususiyatlarini farqlash, turli ijrolarni taqqoslash hamda o'z fikrini asoslashni talab etadi.

Shu jihatdan musiqiy-kognitiv salohiyatni rivojlantirish quyidagi komponentlarning o'zaro birligi asosida qaralishi mumkin:

- motivatsion komponent - musiqa bilan faol shug'ullanishga qiziqish;
- perseptiv komponent - musiqiy tovush, ritm, tembr va melodiyaning idrok etish;
- kognitiv komponent - musiqiy bilimlarni egallash, eslab qolish va qo'llash;
- tahliliy komponent - musiqiy asarni tarkibiy va mazmuniy jihatdan tahlil qilish;
- ijodiy komponent - olingan bilimlar asosida mustaqil musiqiy g'oya yaratish;
- refleksiv komponent - o'z faoliyatini baholash va xulosa chiqarish.

Raqamli texnologiyalar ushbu komponentlarning har birini rivojlantirish uchun turli didaktik imkoniyatlarni yaratadi. Masalan, audio materiallar eshitish idrokini, interaktiv topshiriqlar tahliliy fikrlashni, raqamli nota dasturlari musiqiy savodxonlikni, multimedia materiallari esa musiqiy obrazni yaxlit idrok etishni kuchaytirishi mumkin.

**Tadqiqotning maqsadi:** Musiqa ta'limida raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida o'quvchilarning musiqiy-kognitiv salohiyatini rivojlantirish metodikasini nazariy va amaliy jihatdan takomillashtirish hamda uning samaradorligini belgilovchi pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash.

**Tadqiqotning vazifalari:** Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Musiqiy-kognitiv salohiyat tushunchasining pedagogik mazmunini aniqlashtirish.
2. Musiqa ta'limida raqamli texnologiyalardan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini tahlil qilish.
3. O'quvchilarning musiqiy-kognitiv rivojlanish mezonlarini ishlab chiqish.
4. Raqamli texnologiyalar asosida musiqiy ta'lim metodikasining tarkibiy modelini taklif etish.
5. Taklif etilgan metodikaning pedagogik samaradorligini aniqlash.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Musiqa ta'limida o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish, musiqiy idrokini shakllantirish, ijodiy tafakkurini faollashtirish va ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish masalalari pedagogika va musiqa pedagogikasi fanlarining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur muammo bo'yicha

<sup>1</sup> <https://lex.uz/docs/-5030957?ONDATE=06.10.2020%2000>

olib borilgan tadqiqotlarni shartli ravishda musiqiy-kognitiv rivojlanish, musiqa ta'limi metodikasi, raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda raqamli muhitda musiqiy ijodkorlikni rivojlantirish yo'nalishlariga ajratish mumkin.

Musiqa pedagogikasi sohasidagi fundamental tadqiqotlarda o'quvchining musiqani anglash, eshitish, tahlil qilish va emotsional qabul qilish jarayonlari uning musiqiy rivojlanishining asosiy tarkibiy qismlari sifatida talqin etiladi. Xususan, B.V. Asafyevning musiqiy-intonatsion nazariyasi musiqani shunchaki tovushlar yig'indisi emas, balki inson tafakkuri va idroki bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab badiiy hodisa sifatida tushunishga imkon beradi. Uning qarashlari o'quvchilarning musiqiy asarni tinglash, anglash va mazmunan tahlil qilish faoliyatini tashkil etishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

D.B. Kabalevskiy tomonidan ishlab chiqilgan musiqa ta'limi konsepsiyasida musiqani faol tinglash, musiqiy asarning mazmunini anglash va o'quvchining mustaqil fikrlashini rivojlantirishga katta e'tibor beriladi. Mazkur yondashuv bugungi raqamli ta'lim sharoitida interaktiv audio va video materiallardan foydalanish orqali yanada takomillashtirilishi mumkin. Ya'ni, an'anaviy tinglash faoliyati raqamli platformalar yordamida vizualizatsiya, interaktiv topshiriqlar va multimedia vositalari bilan boyitiladi.

Musiqiy qobiliyatlarning psixologik asoslarini o'rganishda B.M. Teplovning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Olim musiqiy qobiliyatlarni musiqiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlovchi individual-psixologik xususiyatlar sifatida izohlaydi. Uning musiqiy eshitish, ritmni his qilish, musiqiy xotira va musiqiy idrok bilan bog'liq qarashlari o'quvchilarning musiqiy-kognitiv salohiyatini tarkibiy jihatdan aniqlash uchun metodologik asos yaratadi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda esa o'quvchining bilimni tayyor shaklda qabul qilishi emas, balki uni izlash, tahlil qilish, taqqoslash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va mustaqil xulosa chiqarish orqali o'zlashtirishi muhimligi ta'kidlanadi. Shu nuqtayi nazardan, musiqiy-kognitiv salohiyat tushunchasi musiqiy bilim, musiqiy idrok, tahliliy fikrlash, musiqiy xotira, ijodiy faoliyat va mustaqil musiqiy qaror qabul qilish kabi komponentlarning o'zaro integratsiyasini nazarda tutadi. Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi imkoniyatlarini o'rganishga bag'ishlangan xalqaro tadqiqotlarda texnologiyalar o'quvchilarning individual ta'lim trayektoriyasini yaratish, ta'lim materiallarini multimedaviy shaklda taqdim etish, interaktiv topshiriqlarni tashkil etish va tezkor teskari aloqani ta'minlash imkonini berishi qayd etiladi. Xususan, M. Prenskey raqamli muhitda shakllangan o'quvchilarning ta'lim jarayoniga bo'lgan munosabati an'anaviy pedagogik yondashuvlardan farq qilishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu holat musiqa ta'limida ham raqamli vositalardan maqsadli foydalanish zaruratini yuzaga keltiradi.

Musiqa ta'limini raqamlashtirish bo'yicha tadqiqotlarda musiqiy dasturlar, raqamli audio ish stansiyalari, virtual musiqa asboblari, nota yozish dasturlari, onlayn ta'lim platformalari va multimedia resurslari o'quvchilarning musiqiy faoliyatini kengaytiruvchi vositalar sifatida qaralmoqda. Bunday texnologiyalar o'quvchiga nafaqat tayyor musiqiy materialni tinglash, balki uni qayta ishlash, nota yaratish, ritmik va melodik modellar bilan tajriba o'tkazish, musiqiy kompozitsiya yaratish imkonini beradi. Ayniqsa, Lucy Greenning musiqa ta'limida norasmiy o'rganish va o'quvchilarning mustaqil musiqiy faoliyatiga bag'ishlangan ishlari raqamli texnologiyalar sharoitida muhim metodik ahamiyat kasb etadi. Uning yondashuvida o'quvchilarning o'zlari tanlagan musiqiy materiallar bilan ishlashi, tinglash, ijro etish, takrorlash va ijodiy faoliyat orqali bilim hosil qilishi muhim o'rin tutadi. Raqamli platformalar esa bunday mustaqil faoliyat uchun keng axborot va amaliy imkoniyatlar yaratadi.

Shuningdek, David J. Elliotning praktsiologik musiqa ta'limi konsepsiyasida musiqiy bilimni amaliy faoliyat bilan bog'lash muhimligi asoslanadi. Mazkur yondashuv nuqtayi nazaridan o'quvchi musiqani faqat nazariy jihatdan bilishi emas, balki uni tinglash, ijro etish, yaratish va tahlil qilish jarayonida faol ishtirok etishi kerak. Raqamli texnologiyalar ushbu faoliyatlarning barchasini yagona ta'lim muhitida birlashtirish imkoniyatiga ega.

O'zbekiston olimlarining tadqiqotlarida ham musiqa ta'limining mazmunini takomillashtirish, o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish, milliy musiqa merosidan ta'lim jarayonida foydalanish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Xususan, R.Q. Qodirov, N.A. Qodirova, O.A. Hasanboeva va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy-metodik ishlarida musiqa ta'limining mazmuni, musiqiy idrok, ijrochilik faoliyati va o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Biroq mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, musiqa ta'limida raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, raqamli texnologiyalar vositasida aynan o'quvchilarning musiqiy-kognitiv salohiyatini kompleks rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish masalasi yetarlicha tizimli tadqiq etilmagan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy, faoliyatga yo'naltirilgan, shaxsga yo'naltirilgan va raqamli-pedagogik yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqotda pedagogik kuzatish, suhbat, so'rovnoma, musiqiy topshiriqlar, qiyosiy tahlil, pedagogik tajriba-sinov va ekspert baholash metodlaridan foydalanish mumkin.



## TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadval: O'quvchilarning musiqiy-kognitiv salohiyatini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

| Mezon               | Ko'rsatkichlar                                  |
|---------------------|-------------------------------------------------|
| Musiqiy idrok       | Kuy, ritm, tembr va dinamikani farqlash         |
| Musiqiy xotira      | Melodik va rizmik materialni eslab qolish       |
| Tahliliy tafakkur   | Musiqiy asarni taqqoslash va tahlil qilish      |
| Musiqiy savodxonlik | Nota, ritm va musiqiy belgilarni tushunish      |
| Ijodkorlik          | Mustaqil musiqiy g'oya va topshiriqlar yaratish |
| Refleksiya          | O'z musiqiy faoliyatini baholash                |

### Raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirilgan metodika

Tadqiqot doirasida musiqa darslarini "Idrok-Tahlil-Amaliy faoliyat-Ijod-Refleksiya" ketma-ketligi asosida tashkil qilinadi.

#### 1-bosqich. Raqamli musiqiy idrok

Darsning dastlabki bosqichida o'quvchilarga audio yoki video material taqdim etiladi. O'quvchi musiqiy asarning xarakteri, tempi, ritmi, tembr va dinamik xususiyatlarini aniqlaydi.

Masalan: "Musiqani tinglash va uning xarakterini aniqlang."

O'quvchi quyidagi variantlardan birini tanlaydi:

1. Tantanavor;
2. Lirik;
3. Quvnoq;
4. Qayg'uli;
5. Dramatik.

Bu bosqich musiqiy axborotni faol idrok etishga xizmat qiladi.

#### 2-bosqich. Raqamli musiqiy tahlil

Ikkinchi bosqichda o'quvchiga musiqiy asarning qismlari, ritmik modeli yoki melodik fragmentlari taqdim etiladi.

O'quvchi:

1. Musiqiy fragmentlarni taqqoslaydi;
2. Takrorlanayotgan mavzuni aniqlaydi;
3. Ritmik farqlarni topadi;
4. Ijro variantlarini taqqoslaydi;
5. Musiqiy obrazning o'zgarishini izohlaydi.

Bu bosqichda interaktiv testlar, raqamli nota materiallari va audio fragmentlardan foydalanish mumkin.

#### 3-bosqich. Amaliy musiqiy faoliyat

O'quvchi o'zlashtirilgan bilimni faoliyatda qo'llaydi.

Masalan:

1. Ritmik mashqni takrorlash;
2. Melodik fragmentni kuylash;
3. Nota ketma-ketligini aniqlash;
4. Musiqiy asarning qismlarini tartibga keltirish;
5. Berilgan ritm asosida musiqiy variant yaratish.





#### 4-bosqich. Raqamli ijod

Mazkur bosqich metodikaning muhim yangilik elementlaridan biri sifatida qoraladi. O'quvchiga oddiy musiqiy topshiriq beriladi: "Berilgan ritmik model asosida o'z musiqiy variantingizni yarating" yoki "Tinglangan asarning xarakterini saqlagan holda boshqa ritmik variant yarating".

Bunday topshiriqlar o'quvchining reproduktiv faoliyatdan ijodiy faoliyatga o'tishini ta'minlaydi.

#### 5-bosqich. Raqamli refleksiya va baholash

Dars yakunida o'quvchi o'z faoliyatini raqamli topshiriq yoki elektron portfolio orqali baholaydi.


Masalan: Bugun darsda men:

- yangi musiqiy tushunchani o'rgandim;
- musiqiy asarni tahlil qildim;
- ritmik topshiriqni bajardim;
- mustaqil musiqiy g'oya yaratdim;
- o'z faoliyatimni baholadim.

Mazkur yondashuv o'quvchining nafaqat bilimini, balki o'z-o'zini baholash va refleksiv kompetensiyasini ham rivojlantiradi.

#### Takomillashtirilgan metodikaning modeli

Taklif etilayotgan metodik modelni quyidagi mantiqiy tizim asosida ifodalash mumkin:



#### Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

Tadqiqotning ilmiy yangiligini quyidagi jihatlar orqali ifodalash mumkin:

*Birinchidan*, "musiqiy-kognitiv salohiyat" tushunchasining musiqa ta'limidagi mazmuni aniqlashtiriladi.

*Ikkinchidan*, o'quvchilarning musiqiy-kognitiv rivojlanishini ta'minlovchi motivatsion, perseptiv, kognitiv, tahliliy, ijodiy va refleksiv komponentlar tizimi taklif etiladi.

*Uchinchidan*, raqamli texnologiyalarni musiqa darsining "idrok-tahlil-amaliyot-ijod-refleksiya" bosqichlariga integratsiyalash asosida metodik model ishlab chiqiladi.

*To'rtinchidan*, o'quvchilarning musiqiy-kognitiv salohiyatini baholashning mezon va ko'rsatkichlari taklif etiladi.

Kutilayotgan pedagogik natijalar: Metodikaning tizimli qo'llash natijasida o'quvchilarda:

- musiqani faol tinglash;
- musiqiy yangilikni tezroq idrok etish;
- musiqiy xotira;
- ritmik va melodik tafakkur;
- musiqiy asarni tahlil qilish;
- musiqiy hodisalarni taqqoslash;
- mustaqil fikrlash;



- ijodiy musiqiy faoliyat;
- raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish ko'nikmalari rivojlanishi kutiladi.

Musika ta'limida multimedia vositalaridan foydalanish o'quvchilarning tinglash, farqlash va tahlil qilish faoliyatini kuchaytirishi mumkinligi bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar ham mavjud.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Musika ta'limini raqamlashtirish jarayonida asosiy e'tibor texnologik vositalarning soniga emas, balki ularning pedagogik maqsadga muvofiqligiga qaratilishi zarur. Raqamli texnologiyalar o'quvchiga musiqiy materialni ko'rish, eshitish, taqqoslash, tahlil qilish va mustaqil qayta ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tadqiqot natijasida musika ta'limida o'quvchilarning musiqiy-kognitiv salohiyatini rivojlantirishni idrok, tahlil, amaliy faoliyat, ijod va refleksiya bosqichlarining izchil integratsiyasi asosida tashkil etish maqsadga muvofiqligi aniqlandi.

Taklif etilgan metodika o'quvchining tayyor bilimni qabul qiluvchi subyekt sifatidagi rolini kamaytirib, uni musiqiy axborotni mustaqil tahlil qiluvchi, baholovchi va ijodiy qayta ishlavchi faol subyektga aylantirishga xizmat qiladi.

Shu sababli raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan musika ta'limi o'quvchilarning nafaqat musiqiy savodxonligini, balki ularning kognitiv faolligi, mustaqil fikrlashi va ijodiy salohiyatini rivojlantirishning samarali pedagogik sharti sifatida namoyon bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni. "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". - Toshkent, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni. "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". - Toshkent, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". - Toshkent, 2022.
4. Jorgensen E.R. Transforming Music Education. Indiana University Press, 2008.
5. Savage J. Using Technology in Secondary Music Education. Routledge, 2019.
6. Tan L. A Philosophy of Music Education: Advancing the Vision. Routledge, 2021.
7. Umarova Y. T. Talabalar ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli. Imiy- nazariy va metodik jurnal научно-теоретический и методический журнал scientific theoretical and methodical journal. ISSN 3030-3796 E ISSN 3060-4915
8. Umarova Y.T. Место анализа текста в развитии творческого мышления. Педагогические науки 2011.
9. Davronova G.M., Shaykulov Sh.Sh. Raqamli texnologiyalar asosida oliy va umumiy o'rta ta'limda musika o'qitishni integrativ loyihalashning zamonaviy metodlari Science Time 2026

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №9(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.